



## ABITURIYENT – 2021 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

### 2021/2022 O‘QUV YILIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA O‘QISHGA QABUL QILISHNING DAVLAT BUYURTMASI PARAMETRLARI TO‘G‘RISIDA

*Yoshlarning oliy ta‘lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish, karantin sharoitida oliy ta‘lim muassasalariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini talab darajasida tashkil etish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:*

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2021/2022-o‘quv yili qabulidan boshlab **davlat granti asosida** kadrlarni tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasi **O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari va ularning filiallari** (keyingi o‘rinlarda – filiallar) hamda **nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari** uchun ham shakllantiriladi. Bunda:

**filiallar va nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlarida davlat granti asosida** kadrlarni tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasi vazirlik, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining (keyingi o‘rinlarda – kadrlar buyurtmachilari) oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi;

filiallar va nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida **eng yuqori ball to‘plagan** va o‘qishni tamomlagandan so‘ng kadrlar buyurtmachisi tizimida **5 yildan kam bo‘lmagan muddat davomida ishlab berish** istagini bildirgan abituriyentlar bilan **uch tomonlama (kadrlar buyurtmachisi–talaba–oliy ta‘lim tashkiloti)** shartnoma tuziladi;

filiallar va nodavlat oliy ta‘lim tashkilotiga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlar kadrlar buyurtmachisi bilan shartnoma imzolash istagini bildirmagan taqdirda, shartnoma tuzish huquqi kirish imtihonlarida **to‘plagan ballar ketma-ketligiga mos ravishda keyingi o‘rindagi abituriyentga** beriladi;

davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilingan talabalarning o‘qitish xarajatlari kadrlar buyurtmachilari tomonidan **Davlat byudjeti parametrlarida** mazkur maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (Norkulov) Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi (Toshkulov), Moliya

vazirligi (Ishmetov) va Adliya vazirligi (Davletov) bilan birgalikda **ikki oy muddatda** filiallar va nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirish tartibini tasdiqlasin.

2. **2021/2022 o‘quv yili uchun** davlat buyurtmasi parametrlari:

a) **bakalavrlar** tayyorlash bo‘yicha: **kunduzgi** ta‘lim shakliga – **113 530 nafar** etib 1-ilovaga muvofiq;

**sirtqi** ta‘lim shakliga – **37 675 nafar** etib 1a-ilovaga muvofiq;

**kechki** ta‘lim shakliga – **6 550 nafar** etib 1b-ilovaga muvofiq;

b) **magistrlar** tayyorlash bo‘yicha – **12 900 nafar** etib 2-ilovaga muvofiq;

v) **filiallar va nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlarida davlat granti asosida** kadrlar tayyorlash bo‘yicha – **500 nafar** etib 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, 2021/2022 o‘quv yili qabulida:

abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish joriy yilning **22 iyunidan 22 iyuligacha (22 iyul kuni ham)** bo‘lgan muddatda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda Davlat test markazining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi;

Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan **qo‘shimcha 2 000 ta** davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi;

**Samarqand viloyati Urgut tumanini** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ta‘lim tizimida kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish maqsadida bakalavriatning kunduzgi ta‘lim shaklida **pedagogika yo‘nalishlari** bo‘yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi

qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan mazkur tuman uchun **qo‘shimcha 100 ta** davlat granti asosidagi maqsadli qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi; abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan **beshtagacha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish** huquqi beriladi;

abituriyentlarga ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari ustuvorligiga qarab **dastlab davlat granti, keyinchalik to‘lov-kontrakt asosida tanlovda ishtirok etish** bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyat beriladi.

4. **2021/2022 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasining** (keyingi o‘rinlarda – Davlat komissiyasi) tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat komissiyasiga quyidagi huquqlar berilsin:

zarurat bo‘lganda, oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi, professor-o‘qituvchilari tarkibi va o‘quv-metodik ta‘minotidan kelib chiqib, yangi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish hamda tashkil etiladigan yangi oliy ta‘lim muassasalari qabul parametrlarini belgilash uchun davlat buyurtmasi parametrlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat va magistraturasiga tegishli tarmoqlar va hududlar bo‘yicha maqsadli qabul parametrlarini belgilash;

oliy ta‘lim muassasalariga bakalavriatning masofaviy ta‘lim shakliga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash;

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida oliy

ta'lim muassasalarining (o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt minimal miqdorining yagona ko'rsatkichlarini belgilash;

professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash.

5. Xalq ta'limi vazirligi (SHERMATOV) Samarqand viloyati hokimligi (Turdimov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (Norkulov) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov) bilan birgalikda **bir hafta muddatda Samarqand viloyati Urgut tumani** uchun pedagogika yo'nalishlari bo'yicha ajratilgan qabul parametrlarini oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlash bo'yicha asoslangan takliflarni Davlat komissiyasiga kiritish.

6. Belgilansinki:

a) **2021/2022 o'quv yili qabulida:**

davlat oliy ta'lim muassasalarining **magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisliklariga o'qishga qabul qilish** ikki bosqichda amalga oshiriladi. Bunda, **birinchi bosqichda** davlat oliy ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan mutaxassislikka mos fanlar bo'yicha kirish imtihonlari, **ikkinchi bosqichda** Davlat test markazi tomonidan chet tili bo'yicha test sinovlari o'tkaziladi;

magistratura (klinik ordinatura)ga o'qishga qabul qilishda chet tili bo'yicha tegishli darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar ikkinchi bosqichda chet tilidan test sinovini topshirishdan ozod qilinadi va ularga mazkur fan bo'yicha maksimal ball beriladi;

magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisligiga **mos fanlar bo'yicha imtihonlar natijalari** imtihon o'tkazilganidan keyin **uch kun muddatda** davlat oliy ta'lim muassasasi tomonidan idoralararo elektron axborot almashinuv tizimi orqali Davlat test markaziga taqdim etiladi hamda mazkur muassasaning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

abituriyentning chet tili bo'yicha test sinovidan to'plagan ballari to'g'risida ma'lumot **test sinovlari o'tkazilgan kunning ertasiga** hamda magistratura (klinik ordinatura) qabuli bo'yicha tanlov natijalari test sinovlari to'liq yakunlangandan so'ng **bir hafta muddatda** Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

b) **2021/2022 o'quv yili qabulidan boshlab:**

abituriyentdan alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilishda kasbiy (ijodiy) imtihonlardan so'ng **majburiy uchta – ona tili (o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O'zbekiston tarixi fanlari** bo'yicha Davlat test markazi tomonidan test sinovlari o'tkaziladi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga imtihonlarsiz davlat granti asosida o'qishga kirish bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan shaxslar **umumiy qabul parametrlaridan tashqari qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi;**

**xorijiy fuqarolarni** davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish belgilangan tartibda **o'tkaziladigan suhbat natijalariga** ko'ra oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida amalga oshiriladi;

magistratura (klinik ordinatura) mutaxassisliklariga qo'shimcha qabul parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning **to'lov-kontrakt summasi** bir talabaga to'g'ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, **oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi;**

v) **2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab** ro'yxati mazkur qarorga 5-ilovada keltirilgan oliy ta'lim tashkilotlariga **qabul parametrlari** xorijiy mamlakatdagi bosh oliy ta'lim tashkiloti, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan kelishgan holda mazkur oliy ta'lim tashkilotlari **Vasiylik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.**

7. **2021 yil 15 iyuldan** boshlab talabalar o'qishini ko'chirishning quyidagi tartibi joriy qilinsin, unga muvofiq:

a) talabalar o'qishini **xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan** (shu jumladan, xalqaro reytinglarda birinchi 1 000 ta o'rindan birini egallagan) oliy ta'lim tashkilotlaridan **O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishda:**

talabadan alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha **kasbiy (ijodiy) imtihonlar**, boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha **test sinovlari** o'tkaziladi. Bunda, kasbiy (ijodiy) imtihonlar tegishli oliy ta'lim muassasasi tomonidan, test sinovlari Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladi;

test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlar bo'yicha o'tish ballari **joriy yil 25 iyulga qadar, keyinchalik har yili 15 iyulga qadar** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan belgilanadi hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

o'tish balidan past ball to'plagan talabalar bakalavriatga qabul qilishdagi tartibga muvofiq **tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida** o'qishga qabul qilinadi;

test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari Davlat test markazi hamda oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi;

b) talabalar o'qishini **xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan** oliy ta'lim tashkilotlaridan **O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishga ruxsat** etilmaydi;

v) talabalar o'qishini **O'zbekiston Respublikasining bir hududida joylashgan davlat oliy ta'lim muassasasidan boshqa hududidagi davlat oliy ta'lim muassasasi**ga ko'chirishda:

o'qishni mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishga **uzrli sabablar mavjud bo'lganda** ruxsat etiladi. Bunda, o'qishni ko'chirish so'ralayotgan hududda mos va turdosh ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmagan-

da, o'qishni mazkur hududdagi oliy ta'lim muassasasining boshqa ta'lim yo'nalishiga ko'chirishga ruxsat etiladi;

talabaning respublika bir hududidan ikkinchi hududiga **doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi**, turmush o'rtog'i yoki ota-onasining **mehnat faoliyatini amalga oshirish joyi** boshqa hududga o'zgartirilishi, **nikoh tuzgandan keyin** turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududga ko'chib o'tishi **uzrli sabablar etib tan olinadi;**

talabalarning o'qishini **uzrli sabablar mavjud bo'lmagan** holatlarda, shuningdek, **mos va turdosh bo'lmagan** ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish o'rnatilgan tartibda, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan **tabaqalashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdoriga** teng bo'lgan **bir martalik to'lov** asosida amalga oshiriladi (mazkur kichik bandning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno);

g) talabalar o'qishini O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan **filiallar va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan:**

O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarining **mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish** mazkur bandning "a" kichik bandida nazarda tutilgan tartibda;

O'zbekiston Respublikasi davlat oliy ta'lim muassasalarining **mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish** o'rnatilgan tartibda, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan **tabaqalashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdoriga** teng bo'lgan **bir martalik to'lov** asosida amalga oshiriladi;

d) **sport musobaqalari g'olibi sifatida** imtiyoz bilan oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan hamda kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalarning o'qishini ularning arizalariga muvofiq, **sirtqi ta'lim shaklidagi mos va turdosh ta'lim yo'nalishiga** (sirtqi ta'lim shakli mavjud bo'lgan taqdirda) **davlat granti asosida** ko'chirishga ruxsat beriladi.

8. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbaev) Tashqi ishlar vazirligi (Arziev) bilan birgalikda **2021 yil 15 iyulga qadar** qo'shni davlatlarda faoliyat yuritayotgan va vakolatli tashkilot tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan **oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatini** rasmiy veb-saytida e'lon qilsin hamda mazkur ro'yxatning har yili yangilab borilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan ishlohtlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-son Farmonida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat pedagogika institutida **tibbiyot fakultetlarini tashkil qilish belgilanganligi** ma'lumot uchun qabul qilsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (Xadjibaev), Turizm va sport vazirligi (Abduxakimov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining (Tosh-

kulov) O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida **tibbiyot fakultetini tashkil etish** hamda 2021/2022 o'quv yilidan boshlab sog'liqni saqlash sohasi uchun oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Toshkent tibbiyot akademiyasi mazkur bandeda ko'rsatilgan ta'lim muassasalariga tibbiyot fakultetlari faoliyatini samarali tashkil etish, ularni o'quv-metodik jihatdan ta'minlash va malakali professor-o'qituvchilar bilan to'ldirishda ko'maklashsin.

10. SHunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, **Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari va jahon chempionatlarida oxirgi uch yilda g'olib va sovrindor (1-3-o'rin) bo'lgan sportchi-o'quvchilar** davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllariga qo'shimcha davlat granti asosida kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

Bunda, Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy o'yinlari va jahon chempionatlarida g'olib va sovrindor (1-3-o'rin) bo'lgan sportchi-o'quvchilar qabul qilinadigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Turizm va sport vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan vazirligi va idoralarning asoslangan takliflariga muvofiq Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi hamda Turizm va sport vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

11. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbaev) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov) hamda tizimida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2021 yil 1 noyabrga qadar** davlat oliy ta'lim muassasalarida yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun ularning **moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilari va o'quv-metodik ta'minotiga qo'yiladigan minimal talablarni** (keyingi o'rinlarda – minimal talablar) **ishlab chiqsin va tasdiqlasin.**

Belgilansinki, 2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab, davlat oliy ta'lim muassasalariga, ular **minimal talablarga javob bergan taqdirda**, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim faoliyatini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

12. Davlat komissiyasi **besh kun muddatda** 2021/2022 o'quv yili uchun:

Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmalariga binoan sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, veterinariya, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sohasida oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlar uchun davlat buyurtmasi parametrlarining davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida **maqsadli qabul parametrlarining tuman (shahar) lar kesimidagi taqsimotini;**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida davlat buyurtmasi parametrlarini **ta'lim tillariga qarab taqsimotini;**

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi takliflari asosida filiallar va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi parametrlarining **kadrlar buyurtmachilari hamda ta'lim yo'nalishlari kesimidagi taqsimotini tasdiqlasin.**

13. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov) **bir oy muddatda:**

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda 2021/2022 o'quv yilida yangi kiritilayotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo'yicha Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga belgilangan tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin;

davlat oliy ta'lim muassasalarini tomonidan yangi kiritilayotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalarini hamda fan dasturlarining ishlab chiqilishini va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta'minlasin.

14. O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalarini 2021/2022 o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan **to'lov-kontrakt miqdori haqidagi ma'lumotlarni 2021 yil 1 iyulga qadar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilsinlar.**

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari pandemiya sharoitida abituriyatlardan hujjatlarini qabul qilish va test sinovlarini o'tkazish jarayonlarini karantin va xavfsizlik talablariga to'liq amal qilgan holda yuqori saviyada tashkil etishga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

16. Belgilab qo'yilsinki, 2021/2022 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida bakalavriat va magistraturaga o'qishga qabul qilingan shaxslarni o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Moliya vazirligi kadrlar buyurtmachilari tomonidan taqdim etilgan asoslangan hisob-kitoblarga ko'ra filiallar va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan fuqarolarning o'qitish xarajatlari bosqichma-bosqich qoplab borilishini ta'minlasin.

17. Davlat test markaziga (Karimov) markaz faoliyatini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish huquqi berilsin.

18. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari **ikki oy muddatda** respublikaning barcha hududlarida Davlat test markaziga tegishli namunaviy tipdagi pavilonlarning qurilishi uchun belgilangan tartibda er uchastkalari ajratilishi hamda **2022 yil 1 iyungacha**

mazkur pavilonlar qurib bitkazilishi va foydalanishga topshirilishini ta'minlasin.

19. Belgilansinki, mazkur qarorning 6 va 7-bandlari bilan joriy etilayotgan tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga va harbiy oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

20. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov):

a) **ikki hafta muddatda:**

2021/2022 o'quv yilidan boshlab masofaviy ta'lim tashkil etiladigan davlat oliy ta'lim muassasalarini ro'yxati hamda tegishli ta'lim yo'nalishlari uchun qabul parametrlari bo'yicha takliflarni Davlat komissiyasiga kiritilsin;

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Tashkenbaev) bilan birgalikda magistratura mutaxassisliklari va ularga muvofiq bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxatini qayta ko'rib chiqsin, yangilangan ro'yxatni tasdiqlasin hamda ommaviy axborot vositalarida e'lon qilsin;

b) **uch oy muddatda:**

2022/2023 o'quv yili qabulidan boshlab talabalarni magistratura (klinik ordinatura)ga o'qishga qabul qilishning yangi tartibini joriy etish to'g'risidagi;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

21. Vazirlar Mahkamasini **ikki oy muddatda:**

iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni davlat oliy ta'lim muassasalarining sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibini;

masofaviy ta'limni tashkil etish va boshqarish tartibini;

oliy ta'lim muassasalarini va ilmiy tashkilotlarda doktoranturaga qabul qilish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilovchi Hukumat qarorlarini qabul qilsin.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 6-ilmovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

23. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsan javobgar etib oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.X. Toshkulov hamda Davlat test markazi direktori M.M.Karimov belgilansin.

Qaror ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A.Musaeov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
SH. MIRZIYOEV  
Toshkent shahri, 2021- yil 22- iyun*

# OMAD YOR BO‘LSIN!

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Bugun yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlar zamirida vatan yoshlarining manfaati ustuvor g‘oya hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada so‘nggi yillarda bir qator islohotlar o‘z tasdig‘ini topmoqda. Har qanday islohot, avvalo, inson uchun xizmat qilishi darkor hamda yoshlarga qaratilayotgan ta‘limdagi shaffoflikni ta‘minlash eng birinchi masaladir. Demak, bugun farzandlarimizga ta‘lim bersak ertangi kunida butunjahon minbarlarida raqobatbardosh yoshlar bo‘la oladi. Buning uchun bugun oliy ta‘lim tizimi shaffofligini ta‘minlash barcha rahbarlarning oldidagi katta vazifasi sanaladi.

Iyun oyidagi videoselektiy g‘ilishida Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliy ta‘limdagi to‘rtta ustuvor vazifani belgilab berdilar. Ushbu ustuvor vazifalarning ijrosini ta‘minlashda har bir oliy o‘quv yurti jamoasidan katta mehnati talab qilinadi. Demak, barchamiz ta‘lim islohoti uchun kelajak avlodga shaffof ta‘lim tizimini yetkazishda birdek mas‘ulmiz.

Ko‘zlarida shijoat bilan Vatan sha‘nini jahon minbarlarida ko‘tarib kelayotgan yoshlarimizga havasning keladi. Shoirlarimiz ta‘kidlaganlaridek: “Oh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi!”, - deging keladi! Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni O‘zbekiston yoshlari va talabalari forumiga tashrif buyurarkan yoshlarimizning bilimga chanqoq nigohlaridagi shijoatga ishonch bildirdi.

Bu borada alohida davlat tashkiloti – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilgan. Bundan tashqari, Yoshlar ittifoqi, uning huzurida o‘ttizdan ortiq nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Barcha shahar va tumanlarda “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi, turli sohalarni qamrab olgan “Besh tashabbus” amalga oshirilmoqda. Joriy yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilingani ham yoshlarga e‘tiborning yorqin ifodasi. Shu yo‘sinda yana bir dalil: Prezidentimizning yoshlarga oid siyosatida ikkita eng muhim yo‘nalish bor: birinchisi – ularga zamonaviy bilim berish, ikkinchisi – yoshlar bandligini ta‘minlashi. Yosh avlodga bilimga intilish kuchaydi. O‘tgan bir yilda bilim va zukko yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida 4 ta oltin, 18 ta kumush va 29 ta bronza medallarini qo‘lga kiritishdi. Joriy yilda Prezident maktablarini tamomlagan 96 nafar o‘quvchilarning barchasi muddatidan avval nufuzli xorijiy oliygohlarga grant asosida o‘qishga kirdi. O‘sib kelayotgan bilimga chanqoq yoshlarning talabiga mos ravishda oliy ta‘lim muassasalari soni 127 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy universitetlarning filiallari ochildi. Oxirgi 5 yilda oliy ta‘limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, joriy yilda 182 mingga yetkazil-

di. Bu – umumiy qamrov 28 foiz bo‘ladi, deganidir. 4 yil ilgari bu ko‘rsatkich atigi 9 foiz edi. Davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingga ko‘paytirilgani, ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizlarga oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun alohida grantlar ajratilgani minglab oilalarga quvonch olib kirdi. Bu yil yana bir oliy ta‘lim maskani – “Yangi O‘zbekiston” universiteti tashkil etildi. Shuningdek ToshPTIdagi N. Pirogov nomli Rossiya Milliy tadqiqot universiteti filiali ochilishi haqida Prezidentimiz Qarorlari imzolandi. Yangi o‘quv yilida unga 300 nafar yoshlar qabul qilinadi. Darhaqiqat, bugungi kun nafasi bilan yashash har bir yosh avlodning vazifasiga aylandi. Negaki, bir soniyalik loqaydlik bir davlatning yuz yil ortda qolishi bilan barobar texnika asri rivojlanib bormoqda. Barcha sohalarda innovatsion tizimda ishlash, til bilish ustuvorligini ta‘minlash kunning mavzusi bo‘lib qoldi

Yuqoridagi raqamlarning o‘sib borishida esa hattoki sekundlarni ayamay mehnat qilish talab qilinadi. Yurtboshimizning ta‘limga qaratayotgan e‘tirofi zamirida ertangi kunga bo‘lgan katta ishonch yotadi.

Aziz abiturintlar! Institutimizga qo‘ygan qadamingiz qutlug‘ bo‘lsin! Ezgu niyatlaringiz amalga oshib, talabalik degan sharaffi nomga erishingizni tilab qolaman!



## PEDIATRIYA ISHI TA'LIM YO'NALISHI

Institut bilan tengdosh Pediatriya yo'nalishi boy tarix va an'analarga ega. Uning bitiruvchilari O'zbekiston Sog'liqni saqlash tizimining turli bo'g'inlarida faoliyat ko'rsatadilar. Bu yo'nalish xalqaro nufuzga ega bo'lgan yirik olimlar, mohir tibbiyotchilar: pediatr, neonatolog, bolalar jarrohlari, oftalmotolog, travmatolog-ortoped, otolorinologlarni yetishtirib beradi.

Bu yo'nalishda ta'limning kunduzgi shaklida o'qish muddati 6 yil. Ixtisosligi: shifokor-umumiy pediatr. Shifokor-umumiy pediatr ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tomonidan

bo'sh o'rinlarni egallash mumkin bo'lgan lavozimlarda ishlash uchun davlat muassasalarida (qishloq, shahar shifokorlik punktlarida, ambulatory-poliklinik muassasalarida, tez va shoshilinch yordam xizmatlarida, statsionarning maxsuslashtirilmagan bolalar bo'limlarida, maktabgacha va maktab qoshidagi bolalar muassasalarida, bolalar profaktoriylari va dam olish uylari), nodavlat tibbiy muassasalarida shaxsiy va individual tarkibdagi faoliyat uchun tayyor bo'lishlari kerak.

Shu bilan birgalikda shifokor-umumiy pediatr bakalavriat yo'nalishining chegarasida tan-

langan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limni davom ettirishga, qayta tayyorlash va malakani oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga ha tayyor bo'lishi lozim.

Ish faoliyati: oliy o'quv yurtlari oliy ma'lumotli mutaxassisga mo'ljallangan o'rinlarda ishlash. Umumiy pediatr shifokor davlat muassasalarida qishloq uchastka kasalxonalarida, tez yordam xizmatlarida, tibbiy-sanitariya qismlarida, shifokorlik sog'lomlashtirish punktlarida, sanatoriy-profilaktoriylarda, dam olish uylarida, nodavlat tibbiy muassasalarida xususiy yakka tartibda ishlashlari mumkin.

## DAVOLASH ISHI TA'LIM YO'NALISHI

Davolash ishi ta'lim yo'nalishiga qabul 2010-yildan boshlab amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishning sog'liqni saqlash sohasidagi o'rnini quyidagicha:

Ushbu ta'lim yo'nalishi tibbiyot sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga mutasaddili qobiliyatiga yo'naltirilgan inson salomatligini saqlash faoliyati vositalari, usullar va uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

Umumiy amaliyot shifokori oliy va o'rta maxsus tibbiyot muassasalarida (qishloq va shahar tibbiyot punktlarida, ambulatory-poliklinik muassasalarida, tez tibbiy va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarida), nodavlat tibbiyot muassasalarida,

xususiy yakka tartibda ishlashi mumkin.

Ushbu yo'nalishning kasbiy faoliyat turlariga tibbiy-profilaktik, tez va shoshilinch tibbiy yordam, davolash-tashxislash, reabilitatsiya, tibbiy-ijtimoiy yordam, ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkillashtirish kiradi. Fakultet talabalari institutning amaldagi nizomiga binoan: zamon darajasida rivojlangan fan, texnika va madaniy bilimlari egallash; oliy o'quv yurti faoliyatiga oid muhim masalalarni hal qilish va muhokamasida, shu jumladan, jamoat tashkilotlari orqali oliy o'quv yurtlarining boshqaruv organlari ishlarida qatnashish; kutubxona, axborot jamg'armasi, oliy o'quv yurti o'quv, ilmiy, davolash va boshqa bo'linmalarining xizmat



turlaridan bepul foydalanish: ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiya va simpoziumlarda qatnashish, o'z ishlarini oliy o'quv yurtining nashrlariga taqdim etish; O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga zid bo'lmagan oliy o'quv yurti talabasiga berilgan boshqa huquqlardan foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

# XALQ TABOBATI TA'LIM YO'NALISHI

Toshkent tibbiyot akademiyasi-da xalq tabobati ta'lim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-aprelda-gi "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" xaqida-gi PQ-4668 – son qaroriga asosan tashkil etildi.

Bakalavriyat tizimida tibbiy ta'lim yo'nalishi, o'qish muddati va bitiruvchilar kvalifikatsiyasi.

5511100-xalq tabobati ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi aholi salomatligini ta'minlash, tibbiy sanitar yordam ko'rsatish, turli xil, ayniqsa surunkali kasalliklar profilaktikasida va ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda sinalgan xalq tabobati usullarini o'rganish va amaliyotda qo'llashni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

**Xalq tabobati ta'lim yo'nalishini bitirgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lgan mutaxassisliklar:**

- Xalq tabobati mutaxassisi sog'liqni saqlash tizimida, oilaviy poliklinikalarda, davlat byudjetidagi va xususiy klinikalarda. Quydagilar bilan shug'ullanadilar: kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasida xalq tabobatining asosiy usullarini (fitoterapiya, akupunktura, ayurveda, gomeopatiya, yoga, moksoterapiya, naturopatiya, osteopatiya, termal tibbiyot, xiro-amaliyot, sigun va boshqalar) qo'llash.

- Ta'lim yo'nalish – 5511100 xalq tabobati

- O'qish shakli – kunduzgi
- O'qish muddati – 4 yil
- Mutaxassisligi – xalq tibobati mutaxassisi

- Maqsad - xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy tibbiyotda ularni qo'llash.

Maqsad - xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini (fitoterapiya, akupunktura, ayurveda, gomeopatiya, moksoterapiya, naturopati-



ya, osteopatiya, termal tibbiyot, xiro-amaliyot, maxsus jismoniy tarbiya usullarini: sigun, yoga va boshqalar) rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy tibbiyotda ularni qo'llash.

Xalq tabobati ta'lim yo'nalishini bitirgandan so'ng ishlashi mumkin bo'lgan mutaxassisliklar.

Xalq tabobati mutaxassisi sog'liqni saqlash tizimida, oilaviy poliklinikalarda, davlat byudjetidagi va xususiy klinikalarda. Quydagilar bilan shug'ullanadilar: kasalliklarni tashxislash, davolash va profilaktikasida xalq tabobatining asosiy usullarini qo'llash, zamonaviy tibbiyotga integratsiya qilish.

## TIBBIY BIOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda-gi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-sonli qarori asosida institutimizda tibbiy-biologiya ishi ta'lim yo'nalishi ochildi.

Ta'limning kunduzgi shaklida o'qish muddati 4 yil bo'lib, Tibbiy-biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, tibbiy tashxislash, tibbiy-jtimoiy, tashkiliy boshqaruv, kasbiy faoliyat turlari mavjud.

Shuningdek, pedagogik qayta tayyorlov o'tgandan so'ng o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish mum-



kin. Tibbiy-biologiya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy tayyorgarlikdan keyin biologiya (yo'nalishlar bo'yicha), mikrobiologiya va virusologiya, biotexnologiya, biofizika, tibbiy-biologik apparatlar, tizim va majmualar, morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha), tashxisning

instrumental va funksional usullari (yo'nalishlar bo'yicha), farmakologiya va yangi yo'nalishlar bo'lgan molekulyar genetika, biologik tibbiy texnologiyalar, tibbiy biologiya, tibbiy biofizika, tibbiy kibernetika, molekulyar farmakologiya bo'yicha ta'limni davom ettirishlari mumkin.

# XALQARO FAKULTET



Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro fakultetlarning tashkil etilishi bo'yicha Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Xalqaro hamkorligi doirasida 68 xorijiy tibbiy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda 12 yo'nalish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan, institut professor o'qiyuvchilarining chet elda bir oylik malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlarini hamda chet ellik mutaxassislarni ToshPTIda ilmiy-amaliy va ta'lim berishlari yo'lga qo'yilgan. 2019-2020 o'quv yilidan boshlab institutda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg Davlat Pediatriya tibbiyot universiteti bilan 2018-yil 18-oktyabr kuni O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi doirasida imzolangan shartnomaga asosan hamkorlikda Xalqaro fakultet tashkil etildi

va uning tarkibida "Pediatriya ishi" va "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarini o'qitish amalga oshirilmoqda. Ushbu 2020-2021 o'quv yilidan boshlab "Stomatologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qo'shma bakalavriat dasturi asosida talabalarni qabul qilish rejalashtirilgan. Oliy ta'limdan keyingi

magistraturaning "Sog'liqni saqlashni tashkillashtirish" mutaxassisligi va klinik ordinaturaning "Neolatologiya", "Bolalar jarrohligi", "Nevrologiya" va "Otorinologiya" mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari asosida qabul amalga oshiriladi.



# MAGISTRATURA BO'LIMI HAQIDA



Oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichi yakunlash arafasida turgan barcha talabalarni ta'limning keyingi bosqichi to'g'risidagi ma'lumotlar qiziqtirishi tabiiy. Shu tufayli bugungi sahifamizda magistratura bo'limi haqida ma'lumot bermoqchimiz.

ToshPTI da magistratura orqali aniq mutaxassislik bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash 2000-2001 o'quv yilidan amalga oshirila boshlangan. Hozirgi paytgach 36 ta mutaxassislik bo'yicha 2155 nafar magistr tayyorlanib, ular oliy tibbiy ta'lim muassasalarida, ilmiy va ixtisoslashgan markazlarda, ilmiy tekshirish institutlari va sog'liqni saqlash tizimining barcha sohalarida yetuk mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida o'qitish muddati Davlat ta'lim standartlarida belgilangan 2 yoki 3 yil davom etuvchi ta'limdir.

Amaldagi nizomga asosan "Magistr: tanlangan mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga; kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga; oliy ta'lim muassasasidan keying ta'limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutda davom ettirishga; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi".

Respublikamizda oliy tibbiy ta'lim bo'yicha Jahon Federatsiyasi hamda Jahon Sog'liqni Saqlash Assotsiatsiyasining tavsiya va rezolyutsiyalarini inobatga olgan holda tashkil etilgan. JSST va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalartomonidan ona va bola salomatligi muhofaza qilinishining o'zbek modeli sifatida tan olingan konsepsiyada moddiy-tex-

nik bazani rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qatorida xalqaro andozalarga mutanosiblikdagi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni malakaviy salohiyati eng muhim omillardan biri etib belgilangan.

2021-2022-o'quv yilida quyidagi mutaxassisliklarga magistrlar qabuli bo'lib o'tadi: Akusherlik va ginekologiya, endokrinologiya, terapiya (yo'nalish bo'yicha), otorinolarologiya, kardiologiya, oftalmologiya, yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha), dermatovenerologiya, nevrologiya, psixiatriya, xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha), tashxisning instrumental va funksional usullari (yo'nalishlar bo'yicha), neyroxirurgiya, Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash (yo'nalishlar bo'yicha), tibbiy psixologiya, morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha), travmatologiya va ortopediya, sud-tibbiyot ekspertizasi, shoshilinch tibbiy yordam, pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha), bolalar xirurgiyasi, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi, bolalar yuqumli kasalliklari.

Magistraturaga kiruvchilarga chet tilini bilish talabi hamda mutaxassislik bo'yicha ijodiy qobiliyatni belgilash mezonlari kiritilgan.

*Sh.S.Abdullayev*

*ToshPTI magistratura bo'limi boshlig'i*

**PEDIATR**  
TOSHKENT PEDIATRIYA  
TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT  
JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО  
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО  
МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

**Tahrir kengashi:**

D.A. Asadov, A.V. Alimov,  
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,  
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,  
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,  
S. Nurxodjayev A. Valiyev,  
A.A. Kudayberganov,  
**Nashr uchun mas'ul:**  
R. G'ochchiyeva

**Bosh muharrir:**

B.T. DAMINOV  
Tahrir hay'ati:  
(ishchi guruh)  
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva  
**(Bosh muharrir o'rinbosari),**  
A.M. Mannonov,  
D.A. Ahmedova, H. Rasulov  
S.A. Begmonov, A. Nosirov,  
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: 700140, Toshkent-140,  
Bog'ishamol ko'chasi, 223

Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.